

LUG'ATDA OT SO'Z TURKUMINI DARAJALANISH BO'YICHA JOYLASHTIRISH MUAMMOSI

Ruziyeva Charos

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15167034>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilshunosligi lug'atshunosligi, tamoyillari, ot so'z turkumiga oid so'zlarni darajalanish asosida joylashtirish haqida ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: lug'at, dominant so'z, turkum ma'nosi, graduonimik qator, ot, antroponimlar.

Lug'at - so'z, ibora, morfema va boshqa til unsurlarining belgilangan aniq maqsadga asosan ma'lum tartib asosida tuzilgan majmuyidir. Ilmiy adabiyotlarda lug'atchilik tilshunoslikning mustaqil sohasi hisoblansa-da, aslida, leksikologiya bilan bevosita aloqadorligi aytiladi¹. Chunki leksikologiyada tilning lug'at boyligi, so'z ma'nosi, uslub, nutq va shakl-mazmun munosabati kabilar o'rganiladi. Insoniyat hayot yo'li davomida so'z bilan ish yuritadi, muloqotga kirishadi, shu tariqa tildan foydalanish jarayonida paydo bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida lug'atlar yaratilib, barcha soha vakillari uchun qulay lingvistik manbalar hosil qilinadi. Lug'atda so'zlarni joylashtirishda ma'lum tartib, qonuniyat mavjudligi undan ko'zda tutilgan maqsadga oson yetishda asos bo'ladi. Xususan, sinonimlar lug'atida dominant so'z bosh so'z sifatida berilib, uning ma'nodoshlari navbat bilan joylashtiriladi: *bahslashmoq, tortishmoq, munozaralashmoq, munozara qilmoq, talashmoq*. "O'zbek tili izohli lug'ati"da ham bosh so'z berilib, keyin uning ko'chma ma'nolari ketma-ket joylashtiriladi: *Balandparvoz*

1 Yuqori, yuksak uchadigan. Burgutday balandparvoz bo'lish uchun quloq-quloq qanot kerak. Oybek, O.v.shabadalar.

2 ko'chma O'zini katta oluvchi; gerdagay. Balandparvoz odam.

3 ko'chma havoyi (bejama) gaplar bilan me'yoridan oshirilgan; quruq, soxta. Balandparvoz va'dalar. Balandparvoz uslub. Balandparvoz gaplar.

Lug'at tuzishda so'z turkumlari muhim o'rin tutadi, chunki ular tilning strukturasini, semantik va sintaktik xususiyatlarini aks ettiradi. So'z turkumlarini aniq belgilash va tizimlashtirish nafaqat lug'at foydalanuvchisiga so'zning ma'nosini, balki uning ma'lum kontekstdagi qo'llanishini ham to'liq anglashga yordam beradi. Quyida lug'at tuzishda e'tibor qaratishimiz kerak bo'ladigan asosiy jihatlar hamda tartib keltirilgan:

1. Asosiy so'z turkumlariga e'tibor

- Otlar: tilning asosiy qurilish bloklaridan biri bo'lgan ot so'z turkumi mavjudotlar, tushunchalar va narsalarni ifodalaydi. Ko'p hollarda lug'atlarda eng birinchi bo'lim sifatida keltiriladi, chunki ulardan kundalik muloqotda keng foydalaniladi.
- Fe'llar: harakatlar, jarayonlar va holatlarni ifodalaydigan bu so'z turkumiga ham alohida e'tibor beriladi. Chunki u gapning yadro elementi bo'lib, grammatika va ma'no tuzilishining ajrakmas qismidir.
- Sifatlar va ravishlar: sifatlar obyektlarning xususiyatlarini, ravishlar esa fe'llarning aniqligini ifodalaydi. Ushbu turkumlar so'zning qo'shimcha ma'nolarini va uni yanada boyitadigan elementlarini tashkil etadi.

¹ O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.289.

- Boshqa turkumlar: olmoshlar, sonlar, bog'lovchilar, qo'shimchalar va boshqa yordamchi so'z turkumlari o'z o'rniga ega bo'lib, tilning umumiy tuzilishini to'liq aks ettiradi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish va keltirish tartibi

- Grammatik xususiyatlar: har bir so'zning qaysi turkumga mansubligini aniqlash uchun uning sintaktik va semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Bu jarayonda so'zning o'zaro munosabatlari, shakllanishi, qo'shimchalari va kelib chiqishi ham hisobga olinadi.

- Alifbo tartibi va tematik guruhlash: so'zlar tahlil qilingach odatda alifbo tartibida joylashtiriladi. Ba'zi hollarda esa tematik yoki funksional guruhlash usuli qo'llaniladi, bu foydalanuvchiga qidirayotgan ma'lumotni tez topishda yordam beradi.

- Qo'shimcha ma'lumotlar: so'zning ma'nosi, sinonimlari, antonimlari, misollar, etimologiyasi va qo'llanilish doirasi kabi ma'lumotlar ham kiritiladi. Bu ma'lumotlar so'zning to'liq ko'rinishini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

3. E'tibor qaratishning ustuvorliklari

- Keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan so'zlar: lug'at tuzishda, avvalo, kundalik til hayotida keng ishlatiladigan ot, fe'l va sifat turkumlariga alohida e'tibor beriladi.

- Grammatik murakkablik: ba'zi so'zlar bir nechta turkumda qo'llanilishi mumkin, shuning uchun ularning grammatik tahliliga va kontekstga qarab aniqlik kiritishga katta urg'u beriladi.

- Tilning o'ziga xosligi: har bir til o'zining leksik va grammatik xususiyatlariga ega. Lug'at tuzishda tilning o'ziga xosligi, dialektik farqlar va tarixiy o'zgarishlar inobatga olinadi.


Lug'at tuzishda so'z turkumlari asosiy strukturalarni tashkil etib, tilning yanada tizimli va mantiqiy shaklga keltirilishiga xizmat qiladi. Avvalo, keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan ot, sifat, fe'llarga e'tibor qaratilib, so'ng ular grammatik tahlilga tortiladi, alifbo tartibida yoki tematik guruhlariga bo'lib joylashtiriladi. Bu jarayon foydalanuvchiga so'zning barcha jihatlarini – ma'nosi, qo'llanilishi, kelib chiqishi va o'zaro aloqalarini to'liq va aniq yetkazishga yordam beradi.

Otlarning "turkum ma'nosi" predmetlikni ifodalashdir. Akademik A.Hojiyev izidan borib, ta'kidlash joizki, odatda predmet(lik) so'ziga terminologik (atamaviy) ma'no beriladi va til alohida mavjudlik sifatida shakllantirgan va ongimizga singdirgan borliq, mavjudot, falsafiy narsa deb tushuniladi. Otlarda tilning salmog'i, bunyodkorligi ongimizga, tafakkurimizga ta'sirida yorqin namoyon bo'ladi. Chunonchi, qizillik, go'zallik, yaxshilik, adolat, saxovat, jabr, zulm, marhamat, lutf kabi minglab so'zlar ifodalab kelgan ma'no ma'lum bir mavjudot, borliq sifatida qabul qilinadi. Vaholanki, borliqda qizillik yoki kattalik degan mavjudot yo'q. Borliqda "jumladan qizillik belgisiga ega bo'lgan" mavjudotlar bor, xolos. Tafakkurimiz "jumladan qizillik belgisiga ega bo'lgan" mavjudotlardan mana shu belgini – qizillikni ajratib oladi va qizil rang tushunchasini shakllantiradi. Tilimiz esa uni alohida bir borliq, mavjudot sifatida shakllantiradi². Quyida otlarda so'z ma'nolarini farqlashda lisoniy imkoniyatlarning darajalinish qatorlari ustida so'z yuritiladi.

Ot so'z turkumida barcha so'zlar turkum ma'nosiga ko'ra predmetlikni atab kelsa-da, ularda predmetlik ma'nosi zahirida belgi-xususiyat tagma'nosi ham yashiringan bo'ladi. Bu ikki ma'noning so'z semantik strukturasidagi miqdori otlarning lug'aviy-ma'noviy va mavzuiy

² Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Об изменении значения и заменах существительного. т. III. – М.: Просвещение, 1968.

guruhlarida har xil. Shu belgiga asoslanib soʻzning semantik strukturasida soʻz maʼnosining salmogʻiga koʻra otlarning lugʻaviy-maʼnoviy guruhlarini darajalanish qatorlariga tizish mumkin. Qator boshida belgi-xususiyat maʼnosiga deyarli ega boʻlmagan, alohida predmetlarni atab keladigan atoqli otlar turadi. Ularda belgi-xususiyat maʼnosi juda umumiydashgan holda boʻladi. *Zarnigor, Sardor, Sevinch, Bunyod* singari antroponimlar oʻzak nomlab kelayotgan predmetning belgi-xususiyatlari sifatida uning shaxs ekanligi va jinsini anglatadi, xolos, bundan boshqa axborot bermaydi. Agar antroponimlarning semantik-sutrukturasi bilan *olma, kitob* soʻzlari ifodalagan maʼnolarini qiyoslasak, bu muayyan otlarning oʻzlari atab kelgan predmetning belgi-xususiyatiga ishora qilishiga ham guvoh boʻlamiz.



Yuqoridagi sxemadan muayyan otlarda belgi-xususiyat maʼnolarining antroponimlardan koʻra qanchalik boy, hatto qiyoslanmas, solishtirilmas ekanligini koʻrinadi. Shuningdek, oila semantik maydoni atrofida birlashuvchi qarindoshlik nomlari ham oʻziga xos maʼlum darajaga ega, deb aytishimiz mumkin. Bunda uzoq-yaqinlik shkalasi boʻyicha har bir nomni farqlab olishimiz mumkin:

0	+1	+2	+3	+4	+5	+6	+7	+8
Men	ota	ona	opa (singil)	aka (uka)	er (xotin)	farzand	nevara	evara

0	-1	-2	-3	-4	-5
Men	bobo (buvi)	amaki (togʻa)	amma (xola)	pochcha (yanga)	jijan

Koʻrinib turibdiki, graduonimik qatorda men soʻzi dominanta sifatida, unga yaqinlik semasini beruvchi soʻzlar “+”, biroz uzoqlik semasidagilar “-” belgisi yordamida joylashtirildi.

Umuman olganda, turdosh otlarda darajalanish qatori hosil qilish ancha qulay, chunki borliqda mavjud har bir narsa-hodisalar maʼlum belgi-xususiyati, miqdor koʻrsatkichi bilan oʻzaro farqalanadi. Harbiy unvonlarni oladigan boʻlsak, ularning gradual koʻrsatkichlari ham maʼlum graduonimik qator hosil qiladi: *oddiy askar* → *kichik serjant* → *katta serjant* → *leytenant* → *katta leytenant* → *kapitan* → *mayor* → *podpolkovnik* → *polkovnik* → *general-mayor* → *general-leytenant* → *general-polkovnik* → *armiya generali*.

Oʻzbekistonda amalda boʻlgan taʼlim bosqichlari ketma-ketligi oʻzaro graduonimik

munosabat hosil qiladi: *maktabgacha ta'lim va tarbiya → umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim → professional ta'lim → oliy ta'lim → oliy ta'limdan keyingi ta'lim → kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish → maktabdan tashqari ta'lim*

Ta'limga oid gradual qatorlardan yana biri ta'limning har bosqichida ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llanuvchi: *tarbiyalanuvchi → o'quvchi → abituriyent → talaba → magistr → doktorant* kabi so'zlar qatori.

Til ta'limida mavjud *so'z → gap → matn → esse → bayon → insho → referat → tezis → maqola → avtoreferat → dissertatsiya* kabi ijodiy va ilmiy ishlar kamdan ko'pga tomon joylashib, daraja hosil qiladi.

Yer yuzasini o'rab turgan havo qobig'i atmosferaning turlari ham gradual munosabatda joylashadi: *troposfera (atmosferaning quyi qatlami) → stratosfera (troposferadan yuqori qatlam) → mezosfera → termosfera*

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ot so'z turkumida mavjud barcha shakllar ma'lum miqdor va belgi-xususiyat ma'nosiga ko'ra daraja hosil qila oladi. Bu jarayonning lug'atda aks etishi esa soha vakillari uchun ilmiy va badiiy asarlar tahlilida, lingvopoetik tadqiqlarda qulay manba bo'la oladi.

References

1. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Об изменении значения и заменах существительного. т. III. – М.: Просвещение, 1968.
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.